NUTQIY ETIKET VA UNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

A.S.Yo‘ldoshev,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti BS 01-25 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **M.S.Ayxodjayeva.**

Annotatsiya:
Mazkur tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi nutqiy etiketning ijtimoiy xoslanishlari, nutqiy etiketda pragmatik omillarning roli va o‘rnini ochib berish uning barcha davrlarda, barcha kasbiy faoliyatda ahamiyatliligi ta’kidlanishi bilan birga zamonaviy tilshunoslikdagi talqini ham isbotlangan.
Kalit so‘zlar: nutqiy etiket, tilshunoslik, nutq madaniyati, muloqot, jamiyat, pragmatik, lingvistik, tafakkur, ta’sirchan nutq.

Аннотация:
В данной исследовательской работе рассматриваются социальные особенности речевого этикета в узбекском языке, роль и место прагматических факторов в речевом этикете, подчеркивается его важность во все периоды и во всех профессиональных сферах, а также доказывается его интерпретация в современной лингвистике.
Ключевые слова: речевой этикет, лингвистика, речевая культура, коммуникация, общество, прагматика, лингвистика, мышление, эффективная речь.

Abstract:
This research work examines the social characteristics of speech etiquette in the Uzbek language, the role and place of pragmatic factors in speech etiquette, emphasizing its importance in all periods and in all professional activities, and also proves its interpretation in modern linguistics.
Keywords: speech etiquette, linguistics, speech culture, communication, society, pragmatic, linguistic, thinking, effective speech.

Til o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi aloqa idrok tafakkur quroli sifatida biz dunyoni qanday ko‘rishimizni tavsiflaydi. Har bir inson tug‘iliboq tilning muayyan ta’sirlarini yuzaga keltirishiga, hatto keyinchalik inson boshqa tilga ehtiyoj sezganda ham umuman yo‘qolmaydigan narsalarni o‘ziga xos tarzda ko‘rishni ato qilishga ko‘ra ona tillari buyukdir. Xorijiy tilni o‘rganish bu dunyoni boshqacha ko‘rish bilan boshqacha yondashuvlar bilan tanishish usulidir. Nutqiy etiket bu suhbatdoshlar tomonidan o‘zaro aloqa o‘rnatish va uni maqsadli yo‘nalishda olib boorish saqlash uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanish zarurati talab darajasiga ko‘tariladigan turg‘un muloqot shakllarining milliy xarakteridagi maxsus kichik tizimlari tushuniladi. Nutqiy etiketga rus tilshunosi N.I. Formanovskaya quyidagicha ta’rif beradi: “Nutqiy etiket tushunchasi nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish ko‘zlangan maqsadda aloqani saqlab qolish va uni to‘xtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan tizimidir. Muloqot hayotning ma’lum andozalari bilan bog‘liq tarzda bir butun qolipdagi jumlalarni keltirib chiqaradi. Ular hayotiy vaziyatlarga va suhbat mavzulariga aloqador bo‘ladi. Bizga ma’lumki, bunday jumlalarning barcha turlari boshqasiga nisbatan muayyan farqlanishda bo‘ladi, aks holda ularning turlari farqlanmaydi. Biroq nutq madaniyati ham etiket kabi aloqa-aralashuvi jarayoni uchun xizmat qiladi., bularning o‘xshash jihati shundaki ikkisi

ham muloqotni belgilangan me’yorda kelishmovchiliklar va qarshiliklarsiz maqsadga muvofiq tarzda olib borishga yo‘naltirilgan. Nutqiy etiket tushunchasini nutq madaniyatidan farq qilish lozim. Nutq madaniyatida o‘ziga xos talab, me’yor mavjud. Ya’ni yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun nutq egasida bilim va malakalar yetarli bo‘lishi bilan birgalikda o‘z fikrlarini til birliklari yordamida to‘g‘ri aniq ifodali yetkizib berish mahorati ham bo‘lishi kerak. Bundan tashqari nutq madaniyatiga ega bo‘lish deganda o‘z fikrini tiniq, ifodali ta’sirchan yetkaza olish mahorati nazarda tutilsa, nutqiy etiket birliklarini o‘rinli o‘rinli qo‘llash uchun nutqiy muloqot ishtirokchilarining ma’lum mahoratga ega bo‘lishi emas, balki umumiy ma’noda talablari ko‘proq inobatga olinadi.nutqiy etiket birliklarining vazifalari ahamiyati ularning ishlatilishi o‘rinlarini to‘laqonli tushunish uchun sotsiolingvistika, paralingvistika, lingvopragmatika kabilarning nutqiy muomala etiketlari bilan bog‘liq nazariy xulosalardan foydalanish zarur bo‘ladi. Har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati urf-odati va shu bilan birga jamoatchilik orasida muloqotga kirishishida ma’lum etiket me’yorlari bo‘ladi. Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabat ko‘rinishlaridan biridir. Bu ko‘proq insonning tashqi madaniyati o‘zgalar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala jarayonida inson o‘z harakatlariga ijodiy yondashsa ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni anglatadi. Tilshunoslikda etiket tushunchasi keng qamrovli bo‘lib ma’lum ma’noda umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun qoidalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniy “Millat tilini yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmoqdir”, deb ta’kidlaganda til va millat ruhining mushtarakligi haqidagi qarashlari V.Gumboldt g‘oyalariga bevosita hamohanglikda tutib ketadi. Madaniyatlararo nutqiy etiket kompetensiya atamasini ishlatganimizda madaniyatlar ya’ni ikki va undan ortiq xalqlar madaniyati o‘rtasidagi nutqiy etiketlar tushuniladi. Bu o‘rinda turli madaniyatga ega bo‘lgan jamiyat a’zolarining o‘zaro farqli nutqiy qoidalari uyg‘unlashuvi deyish mumkin. Turli ijtimoiy muhit vakillari o‘zaro muloqot qilganda nima yuz berishini oldindan aniq aytib bo‘lmaydi, aksincha, ularning nutqiy faoliyatida har ikkala madaniyat shaklidan farqlanuvchi oraliq nutqiy etiket sodir bo‘ladi. Bunda pragmatika uchun nihoyatda qiziq faktlarni uchratish mumkin. Ma’lum bir xalq madaniyatini ko‘rsatuvchi eng yirik vositalaridan biri bu til hisoblanadi. Shuning uchun ham nutqiy etiket shakllari tilshunoslik fanining ham qiziqarli masalalarga boy o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Tahlillar qiyosiy tarzda olib borilganda ish xarakteri yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir millat o‘z tilida so‘zlashar ekan ularning tabiatiga xos etiketlar shakllanadi va o‘ziga xos nutqiy etiket qoliplari odatga aylanadi. Biroq ularning shakllanishi juda ham ijtimoiylashgan hodisalar asosida yuz bergani bois bir til doirasida olib borilgan kuzatishlarda ularning nutq madaniayati bilan bog‘liq muammolar fanimiz tarixida antic davr tilshunosligiga borib taqaladi. O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar boshqa ko‘pgina xalqlar tilshunosligi tarixida bo‘lgani kabi dastavval madaniyatshunoslik odob-axloq me’yorlari qatorida o‘rganilgan. Nutqiy etiket bu davr adabiyotlarida o‘rganilgan va muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi inson shaxsiyatining namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan. Bu kabi asarlar mohiyatiga ko‘ra ilmiylikka nisbatan ko‘proq didaktik xarakterga egadir. Ularda pand-nasihat yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va asar maqsadiga ko‘ra ham o‘rganishdan ko‘ra o‘rgatish ustuvorligi seziladi. Bu kabi asarlar qatoriga Kaykavusning “Qobusnoma”, Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Alisher Navoiyning “Mahbub- ul qulub”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Pandnomalar” kabi asarlarni kiritish mumkin. Nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar keyinchalik fan sifatida o‘rganila boshlangan.

Ilk davrlarda notiqlik nutq madaniayati va nutq etikasi masalalari tarkibida o‘rganilgan mazkur birliklarning o‘zbek tilshunosligi fani doirasida tadqiq etishda rus tilshunosligi vakillarining o‘rni beqiyosdir. Bajarilgan ishlar xarakteriga ko‘ra nutq madaniayati, muloqotga kirishishi sirlari usullari bundan tashqari uslub axloq kabi masalalariga ko‘proq aloqador bo‘lsada, ularda nutqiy etiket birliklari ma’lum jihati bilan o‘rganilgan muhimi tadqiqot obyekti ko‘rish mumkin. Masalan, ingliz tilshunosligida va o‘zbek tilshunosligida qator tadqiqot ishlar olib borilgan. Bundan ko‘rinadiki, inson muloqot nutqiga oid tadqiqotlar u yoki bu yo‘nalishda turli nomlar ostida amalga oshirilgan bo‘lsada, tilshunoslar bu masalalariga hamma davrlarda ham katta qiziqish bialn qaragan. Adabiyotlar tahlili: O‘zbek tilida nutq madaniayati nutqiy odatlar maslalarining nazariy tadqiq etilishi va tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida shakllanishida taniqli olimlar S.Ibrohimov, R.Kungurov, X.Doniyorovlar tamal toshini qo‘ygan bo‘lsalar keyinchalik boshqa olimlar katta mehnat qilib bu yo‘nalishda nuayyan sohalarni shakllantirishga erishdilar. Masalan, E. Bagmatov, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar asosan, leksik birliklar so‘z kesimida ish olib brogan bo‘lsalar B. O‘rinboyev, sintaksis sohada E. Begmatov, Yo. Tojiyev, S. Mo‘minov, S. Karimov, Sh. Iskandarova, Z.Akbarova kabi olimlarning tadqiqotlarida esa muloqot jarayonining nutqiy odat shakllari jihatidan tahlili masalasiga oydinlik kiritildi. A. Mamatov esa nutq madaniyati va til me’yorlariga oid atama va tushunchalarga izoh berilgan lug‘at yaratdi. O‘zbek tilshunosligida nutqiy odatlarning ilmiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu soha rivojida ko‘plab olimlar qatorida professor N. Mahmudovning alohida xizmatlari bor. Xususan, olimning ilmiy qarashlarida til va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari nazariy asoslangan. Bular “Til siyosati va siyosat tili”, “Xalqlar til va ona tili”, “Fan tili va til fani”, “So‘z o‘zlashtirishda me’yor va milliylik”, “O‘xshatishlar va milliy nigoh” nomli va boshqa ko‘plab ilmiy izlanishlarda o‘zbek tili nutqiy me’yorlarning o‘ziga xos tomonlari lingvokulturologik, antropotsentrik, hamda kognitiv tilshunoslik yutuqlarini o‘ziga xos singdirgan yangicha qarashlar asosida chuqur tadqiq olib brogan. Tilda o‘xshatishlarning turg‘unlashuvi hodisasiga alohida urg‘u bergan olim uni xalq turmush tarsi yashash odatlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi: “xalqning dunyoni ko‘rishi va anglashida o‘ziga xoslik milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni o‘xshatish etalonida o‘z aksini topadi. Bu professorning ilmiy izlanish omillariga bog‘liqligi aniqlangan manzarasining milliylik bilan bog‘liq jihatlari o‘xshatishlar vositasida yanada aniq namoyon bo‘lishini nazariy asoslagan olim “boshqa unsurlar implitsit ifodalana bilgani holda o‘xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog‘i kerak, ya’ni o‘xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo‘lmasa o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmasligini aytib o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda muloqot faqat bevosita (yuzma-yuz) shaklda emas, balki bilvosita, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham amalga oshadi. Turli xalqlarda nutqiy etiket o‘ziga xos bo‘lib, salomlashish va muloqot qilish shakllari farqlanadi. Bu esa lingvopragmatik tadqiqotlarning madaniyatlararo muloqot uchun dolzarbligini ko‘rsatadi. Nutqiy etiketni lingvistika, sotsiolingvistika va pragmatika kabi fanlar o‘rganadi. Nutqiy etiket jamiyat tomonidan qabul qilingan muloqot me’yorlarini ifodalovchi tizim bo‘lib, suhbatdoshlar o‘rtasidagi aloqani tartibga soladi. Nutq madaniyati esa fikrlarni aniq, ravon va ta’sirchan yetkazish mahoratini o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Rrespublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. Manba: http://lex.uz/docs/4561730
2. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – 40 б.
3. Формановская Н. Речевой этикет и культура общения. – М: Высшая школа, 1989. – С. 117.
4. Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. – Андижон, 2020. – Б. 50.